

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI	10
I. R. Berdikulova	
KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBI	14
Onorboev Sh.M.	
A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER.....	26
Mukhammadiyahaminova Shakhzoda Sherzodovna	
FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI.....	36
Rahimova Volida Karim qizi	
XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL.....	42
Nigmatjonov Sardor Abdumannovich	
РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД.....	49
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI...53	
Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna	
MOLIVAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	58
Niyozov Zuxur, Abdujalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira	
KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	61
Davletov Ikrom Raximberganovich	
ИОРДАНИЯ КАК ТУРИСТИЧЕСКИЙ ЦЕНТР БЛИЖНЕГО ВОСТОКА.....	67
Салихова Алина Муратовна	
QUYOSH ENERGIYASINI KONVERSIYALOVCHI OPTOELEKTRON GELIOTRANSFORMATORLARNING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI	73
Axunov Qambarali, Xomidov Abdullajon, Mashrapova Irodaxon	
XXI ASRDA O'ZBEKISTONDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR.....	78
Xamrakulova Xilola, Yusupova Sevaraxon	
HUDUDIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI	83
Sodiqova Nigora	
BANKLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGI TAHLILI.....	89
Muminov Bekzod Polvonovich	
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	95
Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна	
MILLIY KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	103
G'aniyev Elyor Sobirjonovich	
DIGITALIZATION OF INSOLVENCY PROCESSES: THE ROLE OF A UNIFIED ELECTRONIC PLATFORM IN ENSURING TRANSPARENCY AND ECONOMIC EFFICIENCY	110
Damirjon Nurmatovich Soliyev	



О ПРОЦЕССАХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	116
Джумаев Аскар Хайдарович	
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINING HUQUQIY, TASHKILY VA RAQAMLI BAZASINI SHAKLLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR.....	121
Shamsiev O'ktam Sayfitdinovich	
KO'P XONADONLI UYLARDA KOMMUNAL XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	127
Muminov Obidjon Odilovich	
MINTAQA VA UNING HUDUDLARIDA MEHNAT OMILI HISOBIGA SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'LLARI.....	135
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich	
КЛАССИФИКАЦИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ С УЧЕТОМ ОПТИМИЗАЦИИ БИЗНЕС ПРОЦЕССОВ.....	141
Джуманов А.А.	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNI FAKTOR TAHLIL VA KO'P OMILLI REGRESSIYA ASOSIDA BAHOLASH.....	152
V.I. Isroilov, V.B. Ibragimov	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ БАНКОВСКИХ УСЛУГ.....	158
Мамутова Айгуль Калмурзаевна	
QUYOSH NOVUZLARIDA SODIR BO'LUVCHI ISSIQLIK JARAYONLARINING BIR O'LCHAMLI MATEMATIK MODEL.....	165
M.M. Maxmudova, J.J. Kamolov	
ФАКТОРЫ, СДЕРЖИВАЮЩИЕ РАЗВИТИЕ БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	172
Алиев Али Комил угли, Каримова А.	
ISTE'MOL KREDITLARINING ANAMIYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	176
S. Qayumov, M. Qurbonov, A. S. Abduraxmanov	
AVTOTRANSPORT XIZMATLARI SAMARADORLIK DARAJASINI OMILLI TAHLILI.....	179
Raximov Azamat Hamroqulovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA FIRMALARNING TASHQI BOZORLARGA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI: XORIY TAJRIBASI.....	183
Ozodova Farida Zarif qizi	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ЗОЛОВОАЛЮТНЫМИ РЕЗЕРВАМИ И ВНЕШНИМ ДОЛГОМ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧАСТНИКОВ ФИНАНСОВОГО РЫНКА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	187
Зайналов Жахонгир Расулович, Алиева Сусанна Сейрановна	
GENERATIV AI ASOSIDAGI ALGORITMIK NARX BELGILASH MEKANIZMLARI: RAQOBAT IQTISODIYOTIDA MONOPOLLASHUV XAVFI, VANO BO'YICHA SOZLASHUV MUAMMOLARI VA ANTIMONOPOL TARTIBGA SOLISH.....	192
Kendjayeva Dildora Xudayberganovna, Abdumannopova Shirin Olamgir qizi	
РАЗВИТИЕ ЗЕЛЁНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....	200
Тураева А. И.	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN KNOWLEDGE DELIVERY MODELS.....	204
Daminova Barno Esanovna, Pardayeva Sevinch Sherzod qizi, Inoqov Jasur Komil o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА ДЛЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И СТАРТАПОВ.....	208
Ибрагимов Гайратжон Артикович	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA IJTIMOY-IQTISODIY ADOLAT QOIDALARI.....	216
Alimov Nasimjon Hoshimovich	



ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	221
Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'YI INTELLEKTDAN FOYDALANISH USULLARI.....	228
Daminova Barno Esanovna, Abduraimova Aziza Erkin qizi, G'ofurova Anora Zafar qizi	
XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARI (IFRS)GA O'TISH JARAYONIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINING MUAMMOLARI.....	233
Ismailov Naufal Nadirovich	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA SUN'YI INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	241
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: A GLOBAL REVIEW OF AI-POWERED TEACHING AND LEARNING.....	245
Begzod Nishanov	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SUG'URTA (TAKAFUL) TIZIMINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI: NAZARIY-QIYOSIY TAHLIL.....	251
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
RAQAMLI MARKETING VA MILLIY BRENDLASH ORQALI TURIZM EKSPORTINI OSHIRISH: YAQIN SHARQ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON UCHUN YO'L XARITASI.....	259
Bekmurodova F.A., Tolibova Aziza	
MEVA-SABZAVOTCHILIK QUYI MAJMUASIDA LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	263
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA.....	268
Farida Nishanova	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI.....	274
Xakimov Zafar Ibragimovich	
АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ И ДИНАМИКИ ТУРИСТИЧЕСКИХ ПОТОКОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН (2010–2024 ГОДЫ).....	278
Бекимбетова Мария Махсетуллаевна	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I ZANJIRIGA INTEGRATSIYALASHNING FISKAL VA IQTISODIY SAMARADORLIGI: IXTIYORIY O'TISH MEKANIZMINING MIQDORIY VAHOLANISHI.....	282
Urazmatov Jonibek Musurmanovich	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	287
Xasanova Yulduz Kayumovna	
ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ДОХОДОВ РАБОТНИКОВ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ.....	291
Рустамова Феруза Камоловна, Исхакова Сарвар Аюбовна	
ISSIQXONA TIPLI QUYOSH QURITGICHINING ENERGETIK, EKOLOGIK VA IQTISODIY TAHLILI.....	296
B.A. Hikmatov	
ASSESSMENT CRITERIA FOR THE EFFECTIVENESS OF DISTANCE EDUCATION IN THE EDUCATIONAL SYSTEMS OF DEVELOPED COUNTRIES.....	301
Umurzakova Gulyor Eshnazar qizi	
KO'P FUNKSIYALI PV-TROMBE DEVORIDA KONSTRUKTIV YECHIMLAR, HAVO FILTRATSIYASI VA STERILIZATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	307
Rahimova Volda Karim qizi	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI, MAVJUD MUAMMOLARI VA ULARNI BARATARAF ETISH YO'LLARI.....	312
Jiyanov Laziz Najimovich	



KNOWLEDGE ASSESSMENT AND RESULTS VISUALIZATION BASED ON TEXT MINING IN E-LEARNING PLATFORMS	317
Laziz Sayimovich Safarov	
THE ROLE OF DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMMUNICATION CULTURE OF FUTURE TEACHERS.....	321
Dilnoza Jorayevna Kuvatova	
TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHNING ZAMONAVIY KOMPETENSIYALARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI	325
Sharipov Shahriyor Shamsiddin o'g'li	
АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОЙ СФЕРЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	329
Бабаева Г. Я.	
О'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YOSHLARNING O'RNI.....	338
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	
DIGITAL ECONOMY IN THE CONDITIONS OF CURRENT LEVEL AND DYNAMICS OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT	343
Ibodullayeva M.S.	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBI VA MAHSULOT TANNARXINING AUDITI	349
Almardanov Muxamadi, Bolibekov Baxtiyor, Safarov Javohir	
EKOLOGIK OMILLAR ASOSIDA HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING FAZOVIIY-AXBOROT MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI VA OROLBO'YI MISOLIDA)	355
Reymova Gulmira Polatovna	
O'ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIKLARIDAGI SUBYEKT VA PREDIKAT PARADIGMASI, ULARNING UMUMIY VA XUSUSIY JIHLTLARI.....	362
Azamova Gulruh Akbar qizi	
MINTAQALARDA IJTIMOY HIMOYA TIZIMINI STATISTIK MONITORING QILISH VA BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	366
M.Sh. Raximova	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA TO'QIMACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISH VA UNING IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.....	370
Eshniyozov Asadbek Abdinazar o'g'li	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION-INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH ASOSIDA BOSHQARISHNING DOLZARB MASALALARI.....	375
Egamov Raxmatillo Mirolimovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA YIG'ISH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH	380
Bisenbaev Sharyar Quwanishbay uli	
O'ZBEKISTONDA SANOAT TARMOQLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	387
Kudratov Muhammad Rustamovich	
INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISH TIZIMIDAGI MUAMMOLAR VA ULARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	393
Sobirjonova Nodira Rustamjon qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KOOPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	400
Abdinazarova Feruza, Abdiraximov Fayozbek	
IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA XUSUSIYATLARI.....	406
Fayziyev Manuchehr Sharofiddinovich	



IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA SUN'YIY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA XUSUSIYATLARI

Fayziyev Manuchehr Sharofiddinovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli
integratsiya 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'ri, asosiy xususiyatlari va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Sun'iy intellektning iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, boshqaruv qarorlarini optimallashtirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida generativ va agentli sun'iy intellekt tizimlarining qo'llanilishi, ularning afzalliklari va mavjud muammolari ilmiy nuqtai nazardan baholangan. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishdagi strategik ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, iqtisodiyot, raqamlashtirish, algoritim, avtomatlashtirish, innovatsiya, platforma, ma'lumotlar, prognozlash, transformatsiya.

Abstract. This article examines the role, characteristics, and practical significance of artificial intelligence technologies in the digitalization of the economy. The study highlights the potential of artificial intelligence for automating economic processes, processing large volumes of data, optimizing management decisions, and improving production efficiency. It also discusses the application of generative and agent-based artificial intelligence systems in the digital economy, along with their advantages and existing challenges. The findings indicate that artificial intelligence technologies play a strategic role in enhancing economic competitiveness and accelerating innovative development in the context of digital transformation.

Keywords: artificial intelligence, economy, digitalization, algorithm, automation, innovation, platform, data, forecasting, transformation.

Аннотация. В статье исследованы роль, особенности и практическое значение технологий искусственного интеллекта в процессе цифровизации экономики. Рассмотрены возможности искусственного интеллекта в автоматизации экономических процессов, обработке больших данных, оптимизации управленческих решений и повышении эффективности производства. Особое внимание уделено применению генеративных и агентных интеллектуальных систем в условиях цифровой экономики, а также их преимуществ и существующим ограничениям. Результаты исследования подтверждают, что технологии искусственного интеллекта являются важным фактором повышения конкурентоспособности экономики и ускорения инновационного развития.

Ключевые слова: искусственный интеллект, экономика, цифровизация, алгоритм, автоматизация, инновация, платформа, данные, прогнозирование, трансформация.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari iqtisodiy tizimlarning boshqaruv mexanizmlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, real vaqt rejimida tahlil qilish hamda tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirib, sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy faoliyatdagi ahamiyatini sezilarli darajada oshirmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi, bulutli hisoblash texnologiyalari va katta ma'lumotlar (Big Data) platformalarining rivojlanishi sun'iy intellektni iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismiga aylantirmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari an'anaviy avtomatlashtirish tizimlaridan farqli ravishda o'z-o'zini o'rganish, murakkab ma'lumotlar orasidagi bog'liqliklarni aniqlash, prognozlash va qarorlarni optimallashtirish imkoniyatiga ega bo'lib, ishlab chiqarish, moliya, logistika, elektron tijorat, transport va davlat boshqaruvi kabi ko'plab tarmoqlarda samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish sharoitida sun'iy intellekt korxonalar faoliyatini tezkor tahlil qilish, resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion biznes modellarini shakllantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. So'nggi yillarda generativ va agentli sun'iy intellekt tizimlarining rivojlanishi iqtisodiyotning raqamli ekotizimlarining yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda. Bunday texnologiyalar nafaqat axborotni qayta ishlash, balki murakkab biznes



jarayonlarini mustaqil boshqarish, ko'p bosqichli vazifalarni rejalashtirish va turli axborot manbalari bilan o'zaro ishlash imkoniyatlarini yaratmoqda. Natijada korxonalar va tashkilotlarda inson omiliga bog'liq bo'lgan ko'plab operatsiyalar avtomatlashtirilmoqda hamda boshqaruvning intellektual modeli shakllanmoqda [1].

Raqamlashtirish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining asosiy xususiyatlaridan biri katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlash va ulardan iqtisodiy qiymat yaratish imkoniyatidir. Ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlari bozor talabini prognozlash, iste'molchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilish, ishlab chiqarish zanjirlarini optimallashtirish va moliyaviy xavflarni oldindan baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt yordamida raqamli platformalarda xizmatlar sifati oshib, biznes jarayonlarining moslashuvchanligi va raqobatbardoshligi kuchaymoqda. Biroq iqtisodiyotni raqamlashtirishda sun'iy intellektni keng joriy etish bilan bir qatorda ma'lumotlar xavfsizligi, algoritmlarning shaffofligi, etik me'yorlarga rioya qilish va malakali mutaxassislar yetishmovchiligi kabi muammolar ham yuzaga kelmoqda. Shu sababli sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun texnologik infratuzilma bilan bir qatorda huquqiy, institutsional va ilmiy-uslubiy asoslarni ham takomillashtirish zarur hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi aynan ushbu omillarning uyg'unlashuvi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni va o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini baholash hamda turli tarmoqlarda qo'llash istiqbollari aniqlash dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar raqamli iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta'minlash, boshqaruv tizimlarini takomillashtirish va iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyotni raqamlashtirishdagi o'rni so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda sun'iy intellekt iqtisodiy tizimlarni boshqarishning yangi bosqichi sifatida baholanib, uning katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, prognozlash, avtomatlashtirish va qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirishdagi imkoniyatlari keng yoritilgan. Tadqiqotlarda sun'iy intellektning rivojlanishi raqamli iqtisodiyot rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilib, uning korxonalar, moliyaviy institutlar va davlat boshqaruvi tizimlariga integratsiyalashuvi iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omili ekanligi ta'kidlanmoqda. Ilmiy manbalarda iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida sun'iy intellektning asosiy afzalliklaridan biri sifatida ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv konsepsiyasi ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqotchilar sun'iy intellekt algoritmlari yordamida katta hajmdagi iqtisodiy ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash, bozor kon'yunkturasini tahlil qilish va kelajakdagi tendensiyalarni prognozlash imkoniyatlari kengayganligini qayd etadilar. Ayniqsa, mashinali o'qitish (Machine Learning) va chuqur o'rganish (Deep Learning) modellarining rivojlanishi iqtisodiy jarayonlarni an'anaviy statistik usullarga nisbatan ancha yuqori aniqlik bilan baholash imkonini bermoqda. Shu sababli zamonaviy korporativ boshqaruv tizimlarida sun'iy intellekt asosidagi analitik platformalardan foydalanish ko'lami ortib bormoqda [3].

So'nggi ilmiy izlanishlarda generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyotga ta'siri alohida tadqiq etilmoqda. Ushbu texnologiyalar matn, tasvir, dasturiy kod va biznes hujjatlarini avtomatik yaratish orqali korxonalarda mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqotlarda generativ sun'iy intellekt nafaqat axborot ishlab chiqarish vositasi, balki innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni yaratishda strategik resurs sifatida baholanmoqda. Shu bilan birga, korxonalarda mijozlar bilan ishlash, marketing strategiyalarini ishlab chiqish hamda ichki biznes jarayonlarini avtomatlashtirishda generativ modellar samarali natijalar berayotgani qayd etilgan.

Adabiyotlarda agentli sun'iy intellekt tizimlari iqtisodiyotni raqamlashtirishning yangi bosqichi sifatida talqin qilinmoqda. Bunday tizimlar mustaqil ravishda maqsad qo'yish, vazifalarni rejalashtirish va turli dasturiy platformalar bilan o'zaro integratsiyalashgan holda ishlash imkoniyatiga ega. Tadqiqotchilar agentli sun'iy intellekt yordamida logistika, elektron tijorat, bank-moliya va ishlab chiqarish tarmoqlarida murakkab boshqaruv operatsiyalarini avtomatlashtirish mumkinligini ko'rsatganlar. Bu esa inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytirish va boshqaruv xarajatlarini qisqartirish imkonini yaratmoqda. Bir qator ilmiy ishlarda sun'iy intellektning ishlab chiqarish korxonalaridagi iqtisodiy samaradorlikka ta'siri o'rganilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish jarayonlariga sun'iy intellekt asosidagi monitoring va optimallashtirish tizimlarini joriy etish energiya sarfini kamaytirish, uskunalarning nosozliklarini oldindan aniqlash va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli egizak (Digital Twin) va sanoat interneti (Industrial Internet of Things) texnologiyalarining sun'iy intellekt bilan integratsiyasi ishlab chiqarish jarayonlarini virtual muhitda modellashtirish va optimal boshqaruv rejimlarini tanlash imkoniyatini bermoqda.

Moliyaviy sektor bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda sun'iy intellektning kredit risklarini baholash, firibgarlik holatlarini aniqlash, investitsion qarorlarni qo'llab-quvvatlash va algoritmik savdo tizimlarini

rivojlantirishdagi roli keng yoritilgan. Zamonaviy bank tizimlarida neyron tarmoqlar va mashinali o'qitish algoritmlaridan foydalanish mijozlarning moliyaviy xatti-harakatlarini tahlil qilish va individual xizmatlarni shakllantirish imkonini bermozda. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt yordamida moliyaviy xizmatlar sifati oshishi va operatsion xarajatlar kamayishini ko'rsatmoqda.

Elektron tijorat va raqamli platformalar faoliyatini o'rganuvchi ilmiy ishlarda sun'iy intellekt foydalanuvchilarning xulq-atvorini tahlil qilish, shaxsiy tavsiyalarni shakllantirish va talabni prognozlash orqali savdo samaradorligini oshirishi qayd etilgan. Shuningdek, intellektual tavsiya tizimlari iste'molchilar ehtiyojini aniqroq baholashga yordam berib, kompaniyalarning marketing xarajatlarini optimallashtirishga xizmat qilmoqda. Bu esa raqamli platformalar iqtisodiyotining jadal rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda sun'iy intellektni iqtisodiy tizimlarga joriy etish bilan bog'liq muammolar ham keng muhokama qilinmoqda. Xususan, algoritmik xolislik, ma'lumotlar maxfiyligi, kibexavfsizlik, intellektual mulk huquqlari va etik tamoyillarga rioya qilish masalalari dolzarb muammolar sifatida ko'rsatilgan. Tadqiqotchilar sun'iy intellekt tizimlarining shaffofligini ta'minlash, qaror qabul qilish mexanizmlarini izohlash va ma'lumotlardan mas'uliyatli foydalanish bo'yicha xalqaro standartlarni ishlab chiqish zarurligini ta'kidlamozdalar. Bundan tashqari, mehnat bozorida kasblarning transformatsiyasi va yangi raqamli kompetensiyalarga bo'lgan talabning ortishi ham ilmiy izlanishlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Umuman olganda, zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlili sun'iy intellekt texnologiyalari iqtisodiyotni raqamlashtirishning strategik omili ekanligini ko'rsatadi. Mavjud tadqiqotlarda uning ishlab chiqarish, moliya, logistika, elektron tijorat va davlat boshqaruvi sohalaridagi amaliy samaradorligi keng yoritilgan bo'lsa-da, sun'iy intellektning turli iqtisodiy tarmoqlar bilan integratsiyalashuvi, milliy iqtisodiyot sharoitida qo'llash mexanizmlari va ularning uzoq muddatli iqtisodiy ta'sirini kompleks baholash masalalari hali ham chuqur ilmiy izlanishlarni talab etadi. Aynan shu jihatlar mazkur tadqiqotning ilmiy dolzarbligini belgilaydi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni va amaliy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy-nazariy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot davomida mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda sun'iy intellektning ishlab chiqarish, moliya, elektron tijorat, logistika va davlat boshqaruvi sohalarida qo'llanilishiga oid ilmiy qarashlar tahlil qilindi. Maqolada qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, mantiqiy umumlashtirish va ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida sun'iy intellektning iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, prognozlash va boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlashdagi imkoniyatlari alohida o'rganildi. Shuningdek, generativ va agentli sun'iy intellekt tizimlarining raqamli iqtisodiyotdagi amaliy ahamiyati, ularni joriy etish bilan bog'liq afzalliklar va mavjud cheklovlar umumlashtirildi. Mazkur metodologik yondashuv sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy samaradorlik, innovatsion rivojlanish va raqamli transformatsiya jarayonlariga ta'sirini ilmiy asosda baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoniga integratsiyalashuvi boshqaruv samaradorligini oshirish, iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish hamda innovatsion rivojlanishni jadallashtirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sun'iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash, murakkab iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va prognozlash imkoniyatlarini kengaytirib, boshqaruv qarorlarining aniqligi va ishonchliligini oshiradi. Shu sababli ko'plab rivojlangan davlatlar iqtisodiy strategiyalarida sun'iy intellektni raqamli transformatsiyaning asosiy elementi sifatida ko'rib chiqmoqda. Tahlillar sun'iy intellekt texnologiyalarining ishlab chiqarish, logistika, bank-moliya, elektron tijorat va davlat boshqaruvi sohalarida iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, mashinali o'qitish algoritmlari yordamida talabni prognozlash, resurslarni taqsimlash va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish korxonalar faoliyatining rentabelligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, intellektual avtomatlashtirish inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytirib, xizmat ko'rsatish tezligi va sifatini yaxshilash imkonini bermozda [6].

Generativ va agentli sun'iy intellekt tizimlarining rivojlanishi esa raqamli iqtisodiyotning yangi bosqichini shakllantirmozda. Ushbu texnologiyalar korxonalarda hujjatlar tayyorlash, analitik hisobotlar yaratish, mijozlarga xizmat ko'rsatish va murakkab biznes jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlarini kengaytirmozda. Natijada mehnat unumdorligi oshib, xarajatlar qisqarishi hamda innovatsion xizmatlar ulushi ortishi kuzatilmozda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt asosidagi platformalar turli axborot tizimlarini yagona ekotizimga birlashtirib, real vaqt rejimida boshqaruvni amalga oshirish imkonini yaratmoqda. Bundan tashqari, sun'iy intellekt



texnologiyalarining bulutli hisoblash, blokcheyn va narsalar interneti (IoT) bilan integratsiyalashuvi iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini oshirish, raqamli xizmatlar sifatini yaxshilash hamda biznes subyektlari o'rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtirishga xizmat qilmoqda. Bu esa raqamli ekotizimlarning barqaror rivojlanishi va yangi innovatsion biznes modellarining shakllanishiga zamin yaratadi. Biroq tadqiqot davomida sun'iy intellektni iqtisodiy jarayonlarga keng joriy etishda ayrim cheklovlar ham mavjudligi aniqlandi. Jumladan, ma'lumotlar sifati va xavfsizligi, algoritmlarning shaffofligi, etik me'yorlarga rioya etilishi hamda malakali mutaxassislar yetishmovchiligi texnologiyalarning samarali qo'llanilishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar hisoblanadi. Shuningdek, sun'iy intellekt tizimlarining noto'g'ri qaror qabul qilish xavfi yoki algoritmik tarafdashlik holatlari iqtisodiy jarayonlarda muayyan xavflarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli sun'iy intellektni rivojlantirish bilan bir qatorda huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, ma'lumotlarni himoya qilish va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim [7].

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonining barqarorligini ta'minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish hamda innovatsion rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Kelgusida ushbu texnologiyalarni turli iqtisodiy tarmoqlarga moslashtirish va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha kompleks tadqiqotlarni kengaytirish dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyotning turli tarmoqlariga joriy etilishi raqamli transformatsiya jarayonlarini tezlashtirish bilan birga, yangi kasblar va raqamli kompetensiyalarga bo'lgan talabni ham oshirmoqda [8].

Korxonalarda ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlarining rivojlanishi strategik rejalashtirish sifatini yaxshilab, investitsion qarorlarning aniqligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt asosidagi analitik platformalar bozor o'zgarishlariga tezkor moslashish, risklarni oldindan baholash va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun innovatsion infratuzilma va intellektual boshqaruv tizimlarini rivojlantirish zarurati yanada ortib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalari boshqaruv tizimlarini takomillashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlovchi muhim innovatsion vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellektning ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, prognozlash va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish imkoniyatlari raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, texnologiyalarning samarali qo'llanilishi uchun ma'lumotlar xavfsizligi, etik tamoyillar, huquqiy tartibga solish va malakali kadrlar tayyorlash masalalarini takomillashtirish zarur. Kelgusida sun'iy intellektning iqtisodiy tarmoqlarga chuqur integratsiyalashuvi mamlakatlarning innovatsion rivojlanishi va global raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Acemoglu, D., & Johnson, S. (2023). *Power and Progress: Our Thousand-Year Struggle Over Technology and Prosperity*. New York: PublicAffairs.
2. Brynjolfsson, E., Li, D., & Raymond, L. R. (2025). Generative AI at Work. *The Quarterly Journal of Economics*, 140(2), 889–942. <https://doi.org/10.1093/qje/qjae044>
3. Dwivedi, Y. K., Hughes, L., Baabdullah, A. M., Ribeiro-Navarrete, S., Giannakis, M., Al-Debei, M. M., Kar, A. K., & Wamba, S. F. (2023). "So what if ChatGPT wrote it?" Multidisciplinary perspectives on opportunities, challenges and implications of generative conversational AI. *International Journal of Information Management*, 71, 102642. <https://doi.org/10.1016/j.ijinfomgt.2023.102642>
4. OECD. (2025). *Governing with Artificial Intelligence: The State of Play and Way Forward in Core Government Functions*. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/795de142-en>
5. Schwab, K. (2024). The Intelligent Age: A time for cooperation. *World Economic Forum*.
6. Wamba, S. F., Queiroz, M. M., Pappas, I. O., & Sullivan, Y. (2024). Artificial Intelligence Capability and Firm Performance: A Sustainable Development Perspective by the Mediating Role of Data-Driven Culture. *Information Systems Frontiers*, 26(6), 2189–2203. <https://doi.org/10.1007/s10796-023-10460-z>
7. Cazzaniga, M., Jaumotte, F., Li, L., Melina, G., Panton, A. J., Pizzinelli, C., Rockall, E., & Tavares, M. M. (2024). *Gen-AI: Artificial Intelligence and the Future of Work*. IMF Staff Discussion Note, SDN/2024/001. Washington, DC: International Monetary Fund.
8. World Bank. (2025). *Digital Progress and Trends Report 2025: Strengthening AI Foundations*. Washington, DC: World Bank.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100